

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

“XITOYSHUNOSLIK” FAKULTETI

“XITOY IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

Qo`lyozma huquqida

BOYMIROV NODIRJON ERKIN O`G`LI

**“XITOY HARBIY SANOAT MAJMUASINING RIVOJLANISH
MUAMMOLARI”**

5231000 -Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Xitoy va JSHO
mintaqasi) ta`lim yo`nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: i.f.n.,dots. Maxmudov E.R.

Toshkent – 2015

Bitiruv malakaviy ishi himoyasiga tavsiya etildi

“Xitoyshunoslik” Fakultet dekani, s.f.n.,Bekmuratov I.N. “ ” 2015-y.	“Xitoy iqtisodiyoti” Kafedra mudirasi i.f.n., dots. Melibayeva G.A. “ ” 2015-y.
--	---

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. XITOY HARBIY SANOATI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY YO`NALISHLARI.....	8
1.1. Xitoy harbiy sanoatining shakllanish shart-sharoitlari va bosqichlari.....	8
1.2. Harbiy sanoat tarmog'ining milliy sanoat tarkibida tutgan o'rni.....	16
1.3. Harbiy sanoatning rivojlanishida davlatning roli.....	23
II BOB. XITOY HARBIY SANOAT MAJMUASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA MUAMMOLARI.....	28
2.1. XXR harbiy sanoatning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	28
2.2. Xitoy harbiy sanoat majmuasining rivojlanish muammolari va istiqbollari.....	35
XULOSA.....	43
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	46
ILOVALAR.....	50

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kundagi globallashuv sharoitida, dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi davlatlarda mustaqil suverenitet va chegaralarni o'zining ichki va tashqi dushmanlaridan himoya qilish uchun zamonaviy, tezkor harakatlana oluvchi qurolli kuchlar lozim bo'ladi. Mazkur qurolli kuchlarni shakllanishida zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti davrida har qanday sharoitda ham o'z harbiy salohiyatini yo'qotmaydigan qurolli kuchlarga ehtiyoj ayniqsa seziladi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek "Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli kuchlaridir. Ularning jangovor qudrati hamda bosqinchini qurolli mojarolar va urush boshlab yuborishdan tiyib turish vazifalarini bajarishga tayyorgarlik darajasidan hamda mamlakat hududiga bosqinchilik qilingan taqdirda oddiy qurol yaroqlarning har turlaridan foydalangan holda bosqinchini tor-mor qilishdan iboratdir".¹ Qurolli kuchlarning makur vazifalarni bajara olishlik qobiliyati dunyoning turli mintaqalarida kechayotgan notinchliklar, tinch aholining ko'plab halok bo'lishlari yanada avj olib borayotgan sharoitda o'z dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ma'lumki har qanday davlatning mudofaa qobiliyati undagi harbiy sanoat majmuasining qay darajada taraqqiy etgani uzvi bo'g'liqdir. Shu sababli hozirgi vaqtda iqtisodiy jihatdan o'z taraqqiyot yo'lini butun jahonga namoyish qilishga ulgurgan Xitoy Xalq Respublikasining harbiy sanoat majmuasi rivojlanish darajalari, uning tarixi va hozirgi kundagi dolzarb muammolarini tadqiq qilish biz uchun jahon tajribasidan foydalanish va uni o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XXR O'zbekistonning yaqin qo'shnilaridan va hozirgi kunda O'zbekiston bilan har sohadagi a'loqalar rivojlanib bormoqda. Kelajakda XXR ning O'rta Osiyodagi qiziqishlarida O'zbekiston muhim ahamiyatga ega. Shu sababli biz uchun hozirgi kunda toboro yaxshi qo'shnichilik va samarali iqtisodiy hamkorlik

¹ Karimov I.A. 6-tom. HAVFSIZLIK VA BARQAROR TARAQQIYOT YO'LIDA. Davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash. 76-bet.

a`loqalari rivojlanib borayotgan davlatning harbiy sanoat majmuasini tadqiq qilish foydali bo`ladi.

Xitoy o`z qurolli kuchlarining harbiy sanoat majmuasini 1980-yillardan boshlab (To`rtlik modernizatsiya dasturi) modernizatsiya qilib kelmoqda. Shu vaqtdan buyon XXR uchun mazkur soha uning geosiyosiy joylashuvi ichki va tashqi muammolarini mujassamlashtirgan holda alohida ahamiyat talab qiladigan sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Xitoy xukumati o`zining avvalgi keng miqyosli urushga doimiy tayyorgarlik ko`rish strategik tamoyillarini, tinch davrda harbiy qurilish tamoyiliga o`zgartirdi. XXR o`zidagi harbiy sanoat majmuasini sovuq urushi davridagi harbiy strategiyasini hozirgi zamonni mahalliy va kichik to`qnashuvlarda mamlakat qiziqishlarini tezkor va aniq ravishda hmoya qila oladigan armiyani ta`minlash va uni qurollantirish extiyojidan kelib chiqib o`zgartirishda katta yutuqlarga erishib ulgurdi. Mazkur tajribani o`rganish O`zbekiston uchun o`z mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda muhim tajriba manbai bo`lib xizmat qila oladi.

Mana shulardan kelib chiqib, bitiruv-malakaviy ishning mavzui bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Mazkur mavzuning turli jihatlar va qirralarini bir qator iqtisodchi-olimlar o`zlarining ilmiy maqola va monografiyalarida yoritib, ushbu sohaga o`z muayyan xissalarini qo`shganlar. Ular P. B. Kamennov,² A. G.Volodin,³ Mixeev V. V.⁴, Chjen Pin⁵ va boshqalar hisoblanadi. Ushbu ilmiy ishni yozish chog`ida Xitoyning harbiy sohasidagi o`zgarishlar, yangiliklar va uni moliyalash bo`yicha turli nashr etilgan maqola va asarlardan foydalanildi.

Mavzuning ayrim jihatlar O`zbekistonlik olimlari Qurbonov D, Isajanov A, Qodirov A, Mahmudov E.R, Melibayeva G.A., Sadibekova B.D.larning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan.

² Каменнов П.Б. Проблемы обороны, Китай на пути модернизации и реформ, М., 1999, с.309.

³ Володин А.Г. Мировая экономика: прогноз до 2020 г.М., 2007, с.330.

⁴ Михеев В.В. Китай: Угрозы, риски, вызовы развитию. М., 2005, с.217.

⁵ Чжен Пин. География Китая: природа, экономика, культура. Межконтинентальное издательство Китая. 2013.

Bitiruv-malakaviy ishning manbalari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning UNDP, Osiyo rivojlanish banki, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, SIPRI va boshqalar) uslubiy ishlanmalariga hamda O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlariga asoslangan holda yondoshildi.

Ilmiy ishning maqsad va vazifalari. Xitoy harbiy sanoat majmuasining rivojlanish muammolarini tahlil etishdan iborat bo'lib, ularni hal etishda biz quyidagi vazifalarni amalga oshirishni lozim deb topdik:

- Xitoy harbiy sanoatining shakllanish shart-sharoitlarini o'rganib chiqish;
- Harbiy sanoatning shakllanishida davlatning rolini aniqlashga harakat qilish;
- XXR harbiy sanoatining zamonaviy rivojlanish xususiyatlari tahlil etish;
- Xitoy harbiy sanoat majmuasining rivojlanish muammolari va istiqbollari aniqlashdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Xitoy harbiy sanoat majmuasining shakllanish va rivojlanish jarayonlari, uning rivojlanish muammolari bitiruv malakaviy ishning obyekti tashkil etgan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Xitoy harbiy sanoat majmuasining rivojlanish muammolari va uning milliy sanoat, mudofaa qobiliyati va iqtisodiy o'sishdagi ta'sirining tahlili bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etgan.

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Quyidagilarda o'z aksini topadi:

- muallif tomonidan ishni o'rganish davomida iqtisodiy qarashlar va uslubiy yondashuvlardan tashqari mavzu bilan bo'g'liq bo'lgan boshqa sohalar ham o'rganilgan bo'lib harbiy sanoat majmuasining rivojlanish muammolari mohiyati ular yordamida ochib berildi;
- jahondagi harbiy sanoat majmuasiga ega bo'lgan boshqa davlatlarning tajribasi XXR tajribasi bilan undagi o'ziga hos xususiyatlar inobatga olingan holda o'rganildi;
- Xitoy harbiy sanoat majmuasining mavjud rivojlanish muammolarining

manbalari tadqiq etilgan holda kelajakda O'zbekiston sharoitida mamlakatimizning baraqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolarni tadqiqi tajriba sifatida o'rganildi.

- Harbiy sohaga davlat byudjetidan ajratmalarning o'sish dinamikasi taxlil etildi;
- Harbiy sanoat majmuasidagi rivojlanish shartlari va muammolari iqtisodiy tahlil yo'li bilan o'rganildi;
- Mazkur muammolar XXR ning iqtisodiy, geosiyosiy va mudofaa qiziqishlari inobatga olingan holda ko'rib chiqildi.

XXR harbiy sanoat majmuasi rivojlanishida boshqa yirik harbiy sanoat majmuasiga ega bo'lgan davlatlarning ta'siri o'rganildi.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, mazkur mavzuda ko'rsatilgan masalalar taxlili va natijalari shu mavzu bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va aspirant hamda ilmiy izlanuvchilar uchun qo'l keladi. Undan tashqari, ilmiy ishdagi ayrim boblar iqtisodchi talabalar uchun maxsus kurs sifatida o'qitishga tavsiya etilishi mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishining tarkibi. Ilmiy ish kirish, ikkita bob, 5 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iboratdir.

I BOB. XITOIY HARBIY SANOATI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY YO`NALISHLARI

1.1. Xitoy harbiy sanoatining shakllanish shart-sharoitlari va bosqichlar.

Xitoy harbiy sanoat majmuasining shakllanishi Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasining (XXOA Xitoy Xalq Respublikasi qurolli kuchlarining rasmiy nomlanishi) vujudga kelishi bilan bog`liq. XXOA Xitoy fuqarolar urushi davrida, 1927-yil 1-avgustdagi Nanchan qo`zg`aloni natijasida kommunistik “Qizil armiya” sifatida Mao Sze Dun boshchiligidagi vujudga kelgan bo`lib “Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasi” atamasi 1946-yil yozida XKP (Xitoy Kommunistik Partiyasi) ning 8-armiya, 4-yangi armiya va Shimoli Sharqiy armiyalardan tashkil topgan qurolli kuchlarga nisbatan qo`llanila boshlangan, 1949-yil Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgandan so`ng XXR ning barcha qurolli kuchlariga nisbatan mazkur atama qo`llanila boshlandi.

XXR qonunlariga muvofiq 18 yoshdan boshlab XXR ning barcha erkak fuqarolari harbiy xizmatga majburiyatiga egadirlar.⁶ 50 yoshgacha bo`lgan erkaklar harbiy xizmatga majburlanirlar. XXOA to`g`ridan to`g`ri partiya ham hukumatga ham bo`ysunmaydi. XXOA ning oiliy boshqaruv organi davlat va partiyaviy Markaziy Harbiy Komissiyalar hisoblanadi. Ularning tarkibi bir xil bo`ladi va ularga nisbatan MHK atamasi bir xil qo`llanadi. XXOA ning modernizatsiya qilinishi jarayonini shartli ravishda **5 ta** bosqichga bo`lib olsak bo`ladi:

1. 1927-1949 yillar. Bu davrda XXOA asosan qisman Gomindanga va Yaponiya bosqiniga qarshi kurashgan bo`lib, janglar asosan partizanlik ko`rinishida olib borilgan va armiyani ta`minlab beruvchi harbiy sanoat majmuasi deyarli shakllanmagan (qo`shin ta`minoti qismlaridan tashqari). Qurol va jangovor harakatlarni olib borish uchun texnik vositalar asosan SSSR dan yetkazib berilgan va g`arb davlatlarining harbiy bazalarida qoldirib ketilgan qurol-yarog` va texnikadan foydalanilgan.

⁶Книга по национальной безопасности Китая, 2006. <http://www.china.org.cn/english/features/book/194421.htm>

2. 1949-1960 yillar. XXR da harbiy sanoat majmuasini shakllantirishga qaratilgan choralar SSSR ning harbiy, moddiy va ilmiy ko`magida boshlab yuboriladi. XXOA asosan SSSR tomonidan egallab olingan va XXR ga taqdim qilingan Kvantun armiyasi qurollari (Sungar daryo floti kemalari, 861 samolyot, 600 tank, artilleriya va minomyotlar va 1200 pulyemot va boshqa turdagi turli xil o`q otar qurollar) bilan qurollanadi. Keyinchalik esa SSSR tomonidan XXOA ni zamonaviy qurollantirish ishlari boshlab yuboriladi. Aynan shu vaqtda XXR ning hozirgi harbiy sanoat majmuasining o`zagi shakllanadi.
3. 1960-yillar oxiri 1980-yillar. Bu davrda XXR va SSSR o`rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushganligi sababli SSSR tomonidan berilayotgan ko`mak to`xtab qoladi va XXR asosan “O`z kuchiga tayanish” yo`lidan bora boshlaydi. Bu davrda XXR o`z yadroviy quroliga ega bo`ladi (garchi AQSH va SSSR ning yadroviy qudrati darajasida bo`lmasa ham XXR ning mintaqaviy qiziqishlarini himoya qilish uchun yetarli darajada qudratli), lekin shu bilan birga aynan shu davrda ishlab chiqilgan harbiy konsepsiya va unga asoslangan holda XXOA ni qurollanishi va qayta tuzilishi hozirgi kundagi XXR ning geosiyosiy va iqtisodiy qiziqishlarini himoya qilishdagi muammolariga sabab bo`lmoqda.
4. 1980-2002 yillar. 1980-yillar boshida XXR da boshlangan islohotlar uning qurolli kuchlarida ham o`z aksini topdi. Bu islohotlar boshlanishi uchun Xitoy islohotlar otasi Den Syaopinning xizmatlarini katta bo`ldi. U XKP ni XXOA ni isloh qilishga ko`ndirishi ham osonlikcha kechmagan. Buning uchun unga XXOA ning harbiy imkoniyatlari qay ahvolda ekanligini aniq misolda ko`rsatishga to`g`ri keldi. 1979-yilda Xitoy Vyetnamga Qizil Kxemerlarni qo`llab-quvvatlash bahonasi bilan qilingan harbiy intervensiya Den Syaopinning fikrlari haqiqatligini amalda isbotladi.<sup>7</sup> XXR mazkur kichik mahalliy urushda og`ir talofatlar bilan yengildi va XKP XXOA ning yalpi modernizatsiya qilinishi dasturini qabul qilishga majbur bo`ldi.

⁷Чуприн К. В. Военная мощь Поднебесной. Вооруженные силы КНР. М., 2014. С. 355/

5. 2002-yildan hozirgi vaqtgacha. Bu davrda boshlangan modernizatsiya armiyani isloh qilish asosan XXR ning Xalqaro maydondagi o'zini buyuk davlatlardan biri sifatidagi harakatlana olishi bilan bo'g'liq muammolar bilan bo'g'liq. XXR ning BMT ni xalqaro tinchlik operatsiyalaridagi ishtiroki 1990-yilda o'zining 5 nafar zobitlarini Yaqin Sharqga kuzatuvchi qilib jo'natilishi bilan boshlanadi. 2012-yil xolatiga ko'ra XXOA ning 2 mingga yaqin harbiylari BMT ning tinchlik operatsiyalarida faoliyat ko'rsatgan. Ularning asosiy harakat maydonlari Afrika qit'asi hisoblanadi. Bundan tashqari XXR floti 2010-2011 yillarda Aden bo'g'ozidagi qaroqchilarga qarshi kurash olib bordi,⁸ bundan tashqari XXR flotining yirik kema gositali Afrika va Karib dengizi xavzasidagi bir necha davlatlari qirg'oqlariga jo'natildi. Bu orqali XXOA da kechayotgan islohotlar natijalari tahlil qilindi va kamchiliklari ko'rib chiqildi. Bu bosqichda XXR uchun asosiy maqsad mahalliy to'qnashuvlarda tezkor va samarali harakat qila oladigan armiyani shakllantirish, uni zamonaviy va jang talablariga javob bera oladigan texnika bilan ta'minlash ishlarini takomillashtirilgan.

1970-yillar oxirida qabul qilingan "To'rtlik modernizatsiyasi" ning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan, harbiy sohani modernizatsiyalash keng ma'noda, XXI asrda Osiy tinch okeani mintaqasida va jahondagi yangi tarixiy sharoitlardan kelib chiqqan holda, mamlakat harbiy tizimini mos xolga keltirishdan iborat bo'lgan. Xalqaro maydondagi holat va rivojlanish tendentsiyasining ilmiy taxlili shuni ko'rsatadiki, jahonda yangi yirik (yadroviy, yoki yirik davlatlar o'rtasidagi yalpi qurolli to'qnashuvlar) urushlarning kelib chiqishiga sabab yo'qdir. Aksincha hozirda ko'proq mintaqalardagi yirik davlatlarning o'zaro qiziqishlar to'nashuvi va terroristik xavfning ortib borayotgani, bundan tashqari davlatlarning ichki tinchiligiga tahdid solinishi xolatlari ko'proq uchrab turibdi. Shu sababli XXR o'z armiyasini mdernizatsiya qilishida oldiga qo'ygan birinchi galdagi masalasi o'z ichki baraqarorligini ta'minlash va o'z qiziqishlarini dunyoning, yoki kamida

⁸ Разносторонняя деятельность Вооруженных сил Китая. Управления международных связей министерства обороны КНР. Пекиню 2015. С. 28.

Osiyo Tinch Okeani mintasida himoya qilishga qodir qurolli kuchlarni shakllantirishdir.

Xitoy uchun o'z kuch qudratini yig'ib, iqtisodiyotini rivojlantirishga, mamlakatdagi qashshoqlik va qoloqlik bilan kurashishga yo'naltirish imkoniyatlar ochilmoqda. Oldingi strategik tamoyillar, ya'ni doimiy ravishda keng miqyosli urushga tayyor turish tamoyili tinchlik davrida harbiy kuchlarni qurilishga yo'naltirish bilan o'zgartirildi. Lekin bu tamoyil zamonaviy qurolli kuchlarni shakllanirishga qaratilgan jahon tajribasida o'z aksini topmagan va bu tadqiqotga yangi manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur sohadagi chuqur o'zgarishlarga yuz tutish sof ichki omillardan kelib chiqdi. Chunki 1960-1970 yillarda Xitoyning harbiy majmuasi sohasi birinchi navbatda, o'z qoloqligida “qotib qolgan”(tushkunlik) bo'lib, uning sabablari quyilagilarni o'z ichiga oladi: o'tmishdagi yarim qaramlik xolati; mamlakatning ilmiy-texnikaviy bazasini va iqtisodiyotining umumiy qoloqligi; harbiy doktrinal qarashlardagi konservatizm; Xitoyning oliy harbiy rahbariyatining siyosiy kurashlarga bog'liqligi bilan izohlangan.

Undan tashqari, “madaniy inqilob” davrida armiyadan ichki siyosiy kurashda foydalanishning salbiy oqibatlariga olib kelishi, armiyaga ular bajarmaydigan vazifalarni yuklatilishi, harbiy strukturaning haddan tashqari kattalashib ketishiga olib keldi. Birinchi darajali vazifa sifatida harbiylarni yangi anjomlar bilan qurollantirish o'rniga, ideologik tadbirlarni amalga oshirilishi, armiyani harbiy salohiyatini yanada pasaytirib yubordi. Bunday holat uzoq vaqt mobaynida va u hattoki, siyosiy kompaniyalar tugatilgandan so'ng ham saqlanib qoldi.

Mamlakat armiyasida mazkur muammolar yanada chuqulashib borayotgan vaqtda Den Syaopin o'zining 10 ta, 1975-yildan to 1982-yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan harbiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasini e'lon qildi va u bunga mos bo'lgan direktiv organlar qarorlarining asosi bo'lib xizmat qildi.

Harbiy islohotlarning asosiy bosqichidagi etakchi yo'nalishlar bo'lib, mamlakatda yangi harbiy doktrinani yaratilishi xizmat qildi. Unda keng miqyosli oliy harbiy boshqaruvni o'z ichiga olgan qayta qurish, harbiy kuchlar tarkibini qayta tashkil etish, shaxsiy tarkib sonini qisqartirish, Xitoy milliy-ozodlik armiyasi tarkibini yaxshilash, uning tarkibidagi texnik va maxsus qo'shinlarini (rekata, tank, artilleriya, injener, va aloqa), aviatsiya va dengiz kuchlarini salmog'ini ko'paytirish ishlarini amalga oshirish lozim edi. Shular bilan bir qatorda, professional armiyani tayorlash darajasini ham ko'tarish masalasi yuzaga keldi.

“Madaniy inqilob” davrida o'zini tugatgan, siyosiy tomondan pishmagan odamlarni yuqori lavozimlarga tasdiqlash amaliyoti mamlakatdagi modernizatsiyalash vazifalariga to'g'ri kelmas va uning talablariga javob bermas edi. Mamlakatda hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida harbiylarning komanda tarkibiga faqatgina harbiy o'quv muassasalarini tugatgan bitiruvchilarnigina qabul qilish belgilab qo'yildi.

Yangi doktrinaning qabul qilinishi Mao Tszedunning harbiy sohadagi g'oyalaridan keyinchalik ham foydalanish imkoniyatlarini chuqur muhokama qilish holatida kechdi. Shu bilan birga, mazkur g'oyalarni yangi talablardan kelib chiqqan holda rivojlantirish zaruriyati paydo bo'lganligi ta'kidlandi. Jahondagi strategik holatlarni bevosita kuzatib, xorijiy tajribalardan unumli foydalanish lozimligi aniqlandi. Uning natijasida “zamonaviy sharoitlardagi xalq urushi” doktrinasini qabul qilindi va u o'z navbatida, muvozanatli qurolli kuchlari va qo'shinlarini tashkil etishni ko'zda tutdi.

Mamlakatda oliy harbiy boshqaruvni qayta tashkil etish soxa islohotlarining asosiy qismi hisoblanadi.

Oliy harbiy boshqaruvni qayta tashkil etish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish bu Xitoy harbiy sohasi islohotlarining asosiy qismi hisoblanadi. 1982-yildagi mamlakat Konstitutsiyasiga binoan, islohotlar davrida Xitoy qurolli kuchlarining oliy davlat organi bo'lgan – XXR ning Markaziy Harbiy Kengashi tashkil etildi.

Bu esa, davlat strukturasini samarasini kuchaytirishga yo'naltirilgan uning qonunchilik siyosatidagi umumiy tendensiyalari o'zida aks ettirdi.

Xitoy xalq ozodlik armiyasi tarkibidagi quruqlikdagi harbiylarning soni 1 mln. kishiga qisqartirildi (4,2 dan 3,2 gacha). Undagi qayta qurish jarayonlari XXOA tarkibini qayta tashkil etilishi va o'zgartirishlar kiritilishi bilan, boshqaruv personalining qisqarishi bilan, ofitserlarning ko'pchiligini fuqorolik lavozimlariga o'tishi bilan birgalikda olib borildi.

Shu qilingan ishlar natijasida, amaldagi 11 ta okrugdan 7 tasigina qoldirildi. Mamlakatning qurollanish parki ahamiyatli tarza qisqartirildi.⁹

Bularning hammasi armiyani tartibga solish choralari bilan birgalikda amalga oshirildi. Jumladan, "Madaniy inqilob" davrida man etilgan harbiy unvonlarni tiklashning me'yoriy hujjatlar va qonuniy aktlarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash ishlari amalga oshirildi. Xitoyning harbiy o'quv muassasalari ham qayta tashkil ettirishga qaratildi. 1985-yilda XXOA ning milliy harbiy kuchlari Akademiyasi tashkil etildi. U hamma turdagi qurolli kuchlarning operativ-strategik bo'g'ini bo'lib, harbiy boshqaruv kadrlarini tayyorlashga yo'naltirilgandir. Mazkur choralar mamlakatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya kursiga mos holda komanda tarkibining malakasini oshirishga yrdam berdi. Xitoy shaharlaridagi o'qimishli yoshlardan yig'ilgan oddiy harbiy tarkibga nisbatan, texnikani o'zlashtirish va uni ishga tushirishga qo'yilayotgan vazifalar ham murakkablashdi.

1997-yilning sentyabr oyida XKP ning XV s'ezdi bo'lib o'tdi va unda mamlakat qurolli kuchlarini modernizatsiyalash jarayoni xalqaro holatni baholash ta'sirida shakllanishi qayd etildi.¹⁰ Xitoy kelajakda o'z davlatini harbiy tomondan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollangan qudratli kuchlarga aylantirishni mo'ljallamoqda.

1998-yilning iyul oyida XXR Davlat Kengashi tomonidan "Oq kitob" ning milliy qurolli kuchlari masalasi bo'yicha nashrida, Xitoyning harbiy sohadagi asosiy siyosati – bu mavjud qurolli kuchlarni mustahkamlash, agressiyaga va

⁹ East Asian Strategic Review 2008. — P. 24.

¹⁰ Гельбрас В. Тридцатилетие эпохи «реформ и открытости» в Китае. // Мировая экономика и международные отношения, № 6, 2009.с. 65.

qurolli qo'poruvchilik faoliyatlariga qarshi kurash, davlat mustaqilligini, xududiy bir butunligini va mamlakat xavfsizligini ta'minlash masalalaridir. Shu bilan birga, Xitoy agressiya va qurolli konfliktlarning o'chog'i bo'lmasligini, har qanday holatlarda ham birinchi bo'lib, ayniqsa yadroviy bo'lmagan davlatlarga va mintaqalarga qarshi. yadro qurolini qo'llamasligini ta'kidlaydi.¹¹

Hozirgi kunda jahondagi ayrim mintaqalardagi notinchlik va nobarqarorlik Xitoy xukumatini jiddiy o'ylantirib qo'ymoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatning 9-besh yillik direktiv rejalarida va 2010 yillarga mo'ljallangan mamlakatning istiqbolli dasturlarida ko'rsatilganidek, uzoq yillarga mo'ljallangan davlatning qurolli kuchlari salohiyatini mustahkamlash bo'yicha ko'rsatmalari saqlanib qolmoqda.

Bu yo'nalishdagi choralarni amalga oshirish bilan birgalikda, harbiy korxonalar va tashkilotlarni 2/3 qismini konversiyalash ham olib borilmoqda. Bu esa. o'z navbatida, hozirgi bosqichda davlat byudjetidagi harbiy assignatsiyalarning iqtisod bo'lishiga yordam beradi va shu bilan birga, mamlakat qurolli kuchlar majmuasini iqtisodiy fundamentini tubdan yangilash uchun asta-sekinlik bilan sharoitlarni yaratadi.

Xitoy harbiy sohasi katta hajmdagi qonuniy va me'yoriy baza bilan mustahkamlandi. Ular orasida eng asosiy o'rinni 1997-yilda qabul qilingan "Davlat harbiy kuchlari to'g'risidagi" qonuni egalladi. U davlatning harbiy sohadagi vazifalarini aniqlab beradi, markazdagi va mahalliy organlarning harbiy sohasi va fuqaro organlarining muvofiqlashtiruvchi kengashini chaqiradi va qo'shma bayonotlarni qabul qiladi. Shular natijasida mamlakatda yagona qurolli kuchlarni tashkil etishning davlat siyosatining qonuniy asosi tashkil etildi. Mazkur qonun yuridik tomondan, XKP ni mamlakat qurolli kuchlariga yagona rahbarlik qiluvchi organ sifatida va Xitoy jamiyatining yo'naltiruvchi kuchi sifatida tasdiqlaydi.

Ushbu qonun ilgari "uchlik tizim" qurolli kuchlarigi (XXOA, xalq qurolli politsiyasi, xalqdan tashkil topgan harbiylar guruhi) o'zgarishlar kiritdi. Yangi

¹¹ "Белая книга КНР по вопросам национальной обороны, 2006", "Белая книга", <http://www.china.org/>

tarkib o'ziga xarakatdagi XXOA ni va uning zahirasini, xalq qurolli politsiyasini va xalq harbiylarini qamrab oldi.¹²

XX asr oxirida Xitoy qurolli kuchlarini modernizatsiya qilish borasidagi ustuvor yo'nalishlari – bu xarbiy kuchlar salohiyatini sifat ko'rsatkichlarini oshirishdan iborat bo'lib, mamlakat rahbariyati tomonidan “armiyani fan va texnika hisobidan mustahkamlash, qurolli kuchlarga tegishli bo'lgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos holda, harbiy sanoatni tashkil toptirish va uni takomillashtirish, asta-sekin qurol-aslahalar va harbiy kiyim-usti-boshlarni yangilash” talablari oldinga surilmoqda.¹³

Qurolli kuchlar oldiga favqulotda o'zgarish holatlarida harbiy xarakatlarni olib borish imkoniyatlarini oshirish, unda zamonaviy texnika, xususan, yuqori texnologiyalarga asoslangan (ilm sig'imi katta bo'lgan) uskuna va jihozlardan foydalanish vazifalari qo'yilmoqda.

¹² International Strategic Studies, 1* Issue, 2007, P.5

¹³ The Guidelines for the Implementation of the Medium-and Long-Term Program for Science and Technology Development (2006—2020). — Beijing: State Council, 2006;
http://www.strategycenter.net/printVersion/print_pub.asp?pubID=219.

1.2. Harbiy sanoat tarmog'ining milliy sanoat tarkibida tutgan o'rni

Harbiy sanoat tarmoqlarining milliy sanoat tarkibidagi asosiy o'rni ko'proq qurol-yarog' eksporti va harbiy sanoat majmualarida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlarining sanoat va boshqa sohalardagi qo'llanilishi orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirishda ko'rinadi. Bozor iqtisodiyoti to'liq shakllanib ulgurgan davlatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Isroil, Yaponiya, Janubiy Afrika Respublikasi va Fransiyaning harbiy sanoat majmualarida ayniqsa yaqqol ko'zga tashalanadi) harbiy sanoat majmualarida faoliyat yurituvchi xususiy firmalar o'z faoliyati bilan mamlakat iqtisodiyoti tarkibida biznes subyekt sifatida faoliyat yuritadi va soliqlar to'lovini amalga oshiradi. Harbiy sohadagi yangiliklarni fuqarolik sohasida qo'llanilishi ayqniqsa AQSH va Isroil davlatlarida ayniqsa o'z samaradorligini yuqori bo'lganligini ko'rsatgan (internet tarmog'i dastlab AQSH da harbiylar uchun yuqori tezlikda axborot almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan).

Sotsialistik xususiyatli bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan XXR da ham islohotlar boshlangandan so'ng harbiy buyurtmalarni bajaruvchi sanoat majmualari davlat ulushi mavjud bo'lgan kompaniyalarga aylantirildi. Ularning hozirgi vaqtdagi iqtisodiy foyda ko'rish darajasi g'arb davlatlardagi anologlardan ancha farq qilsada¹⁴ ularning oldingi faoliyatidan ko'ra samaradorligi ancha o'sdi.

Quyidagi jadvalda dunyoning eng yuqori texnologik harbiy sanoat majmuasiga ega davlat hisoblanuvchi¹⁵ AQSH va XXR ning islohotlar o'tkazilmasdan oldingi va undan keyingi holati ko'rsatib berilgan. Jadvalaga ko'ra AQSH ning texnologik ustunligi yaqqol ko'rinib turibdi, ammo XXR da islohotlardan oldingi ahvoli bilan qaraladigan bo'lsa islohotlar natijasi qanday darajada bo'lganligini anglab olish qiyin emas. AQSH o'zining texnologik ustunligiga o'z milliy sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan kompaniyalarga (ayniqsa harbiy aviatsiya va fazoviy tadqiqotlar sohasida ayniqsa yuqori raqobat

¹⁴The Military Balance 2009. — London: The International Institute For Strategic Studies, 2009. — P. 456.

¹⁵The Military Balance 2013. — London: The International Institute For Strategic Studies, 2013. — P. 248.

muhihi mavjud , misol: BOENG va LOCKHEED MARTIN) davlat mudofaa buyurtmalarini bajarishga tenderlar e`lon qilish tajribasi orqali erishgan.

1.2.1-jadval

XXR va AQSH ning eng asosiy harbiy texnologik imkoniyatlari solishtirmasi

Eng ahamiyatli texnologik sohalar	AQSH 1980-yil	XXR 1979- yil	XXR 2011-yil
Hisoblash texnikasi	3	1	2
Dasturiy ta`minot	3	0	1
Datchiklar	3	0	1
A`loqa vositalari	3	1	2
Radioelektronika	3	1	2
Energiya saqlovchilar	3	1	2
Energiyani qayta ishlovchi dvigatellar	3	1	2
Loyihani avtomatlashtirish	3	0	1
Mukammal texnologiyalar	3	0	1
Yadroviy texnologiyalar	3	1	2
Fazoviy texnologiyalar	3	1	2

Jadval muallif tomonidan <http://www.fas.org/nuke&technical/guide/china/agency/costind.htm>. manbaga asosan tayyorlandi.

Izoh:3-daraja qurolli kuchlarning dunyoning har qanday nuqtasida hujumkor harbiy operatsiyalar olib berish imkonini beroladiga texnologik ustunlik, 2-daraja mintaqaviy darajadagi ustunlik, 1-mudofaa sharoitida yetarli darajada ta`minlash imkonining mavjudligi.

1.2.1-jadvaldan bizga XXR da amalga oshirilgan islohotlar natijasi yaqqol ko`rinib turibdi. Unga ko`ra 1979-yil holatida umuman mavjud bo`lmagan yoki, endigina rivojlanish bosqichiga kirgan texnologiksohalar islohotlar natijasida dunyoning eng qudratli qurolli kuchlari va harbiy sanoat majmuasiga ega davlat

hisoblanish AQSH¹⁶ ga yaqinlashish holati kuzatiladi. Xitoyning mazkur sohada AQSH ga yetib olinishi taxminan 2042-yillarda bo`lib o`tishi taxmin qilingan.¹⁷

1989-yilda hukumat tomonidan islohotlar davrida qabul qilingan qarorlarda: 2237 ta harbiy ishlanmalarni fuqaro sektori manfaatlari uchun ochish, harbiy foydalanuvchilar uchun, yagona texnologik va patent bazasini shakllantirish, ilmiy, ishlab chiqarish va xo`jalik faoliyatlarini amalga oshirish uchun korxonalar va tashkilotlarga ko`proq mustaqillik berish, fan va ishlab chiqarishda shartnomaviy tizimni joriy etish ishlarini boshlash to`g`risida qaror qabul qilindi va bu qaror ilmiy-izlanishlar samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Texnologik farqlarni yumshatish va kamaytirish va harbiy sanoatni modernizatsiyalashga tayyorlash uchun, mamlakatda yuqori texnologiyalar bo'yicha 1986-va 1988-yillarda yaratilgan va tasdiqlangan "Reja-863" va "Fakel" (olov) milliy dasturlariga asosiy rol belgilandi. Unda Xitoy Fanlar Akademiyasi institutlari, tarmoq ilmiy-tekshiruv muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va xitoy hamda chet el firmalari qatnashdilar. Barcha ilmiy-izlanishlar spektrini qamrab olish uchun va ularni amalga oshirish uchun, resurslar etishmasligini hisobga olgan holda, yetita ustivor yo'nalishlar belgilandi:

- biotexnologiya;
- kosmik texnika va texnologiya;
- informatika;
- lazer texnologiyasi;
- avtomatizatsiyalash texnologiyasi;
- energetika sohasidagi texnologiyalar;
- yangi materiallar.

Ulardan kelib chiqqan holda, xususan, ko'zda tutilmoqda:

- jahonda yuqori texnologiyalarning rivojlanishini kuzatib borish;
- yuqori malakaga ega bo'lgan ilmiy-texnik kadrlarning yangi avlodini tarbiyalash va tayyorlash;

¹⁶ www.globalfirepower.com/report_2014_year/statistical_yearbook/

¹⁷ Top Ten China Mass Protests of 2010 // TheApproachTime, 4 January, 2011. P. 28.

Yuqorida belgilangan barcha dasturlar hozirgi kunda bajarilmoqda, xususan, “reja-863” bo’yicha 1998-yilgacha 1200 ta yutuqlar qo’lga kiritilgan, ulardan yarmi xalqaro standartlarga javob beradi. “Fakel” dasturi bo’yicha 52 ta davlat yuqori texnologiyalarni o’zlashtirish zonasida 14 mingta korxonalarda davlat ahamiyatiga molik 3500 ta loyihalar amalga oshirildi. Mazkur loyihalar ichida harbiy sanoat pudratchilari tomonidan bajarilganlari ham mavjud. Ularning XXR va undan tashqarida qurilish ishlarini olib borishi (Ayniqsa Ppokiston, Shri-lanka, Saudiya Arabistoni va boshqa Osiyo, Afrika davlatlaridagi faolligi oshib bormoqda) jahonning boshqa harbiy sanoat majmualariga ega davlatlariga yetib olganligini ko’rsatmoqda (qurilish sohasida).

Xitoyning harbiy xarajatlari yildan yilga oshib bormoqda (2014-yilda 2013-yildagidan ko’ra 10.7% ga ko’proq o’sish kuzatilgan) bu esa mamlakat iqtisodiyotiga davlat buyurtmasi sifatida yalpi taklif (AD) ko’rinishida iqtisodiyotga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Harbiy xarajatlarning haddan ziyod bo’lib ketmasligini oldini olish maqsadida harbiy xarajatlarning yillik o’sish darajasi 10% qilib belgilab olingan.¹⁸

Ma’lumki XXR rasmiy harbiy byudjetida bir qancha bandlar o’z aksini topmaydi. Misol: Harbiy soahadagi ishlanma va tajribalarga sarflanadigan mablag’ Sanoat va axborotlashtirish vazirligi, Fan va texnologiyalar vazirliklari orqali amalga oshiriladi (harbiy byudjetdan faqatgina XXOA uchun seriyali qurol namunalari xarid qilinadi).¹⁹ Bundan tashqari harbiy byudjet tashqarisida sobiq harbiylarning ijtimoiy ta’minoti, hizmatdagilarining ijtimoiy ta’minoti, harakatdagi armiya askarlari va zobitlarining qayta o’qitilishi, ular zaxirasini ushlab turilishi kabi bandlari rasman harbiy xarajatlar smetasiga kiritilmaydi. Shu sababli biz XXR harbiy sanoatining milliy sanoat tarkibidagi ulushini anchagina yuqori baholashimizga asos mavjud deb hisoblay olamiz.

XXR da 1980-1990 yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ammo rejaning katta qismi bajarilmagan qayta qurollanish dasturi ham mamlakat iqtisodiyoti

¹⁸ China builds its own military-industrial complex. Military Balance 2015/Institute for strategic studies. P. 5

¹⁹ Книга по национальной безопасности Китая, 2006. <http://www.china.org.cn/english/features/book/194421.htm>

o`lishi bilan endilikda amalga oshirilishi mo`ljallandi. Shu sababli yillik harby harajatlarning o`tib borishi kammida 10-11% darajasida bo`lishi nafaqat Xitoy balki dunyoning boshqa tadqiqotchi olimlari tomonidan ham taxmin qilingan va bu taxmin 2008-yildan buyon o`z tasdig`ini topib kelmoqda.

1.2.2-jadval

XXR ning harbiy xarajatlarini YaIM dagi ulushi (2014-yil)


№	Davlat	Harbiy daraja	YaIM (mlrd \$)	Harbiy xarajatlar (mlrd \$)	YaIM dagi harbiy harajatlarning ulushi (% da)
1	AQSH	1	16 720	612.5	3.7
2	XXR	3	8 939	126	1.4
3	Rossiya	2	2 113	76.6	1.6
4	Saudiya Arabistoni	25	719	56.7	7.9
5	Buyuk Britaniya	5	2 490	53.6	2.2
6	Yaponiya	10	5 007	49.1	1.0
7	Hindiston	4	1 758	46	2.6
8	Germaniya	7	3 393	45	1.3
9	Fransiya	6	2 739	43	1.6
10	Italiya	12	2 068	34	1.6
11	Janubiy Koreya	9	1 198	33.7	2.8
	NATO		27 610	788	2.9
	BRIKS		15 000	282	1.9

Jadval muallif tomonidan SIPRI. Statistic charts 2014 manbaga asosan tayyorlandi.

Jadvaldan ko`rinib turibdiki XXR harbiy harajatlarning YaIM dagi ulushi 1.4% ni tashkil qiladi. AQSH va boshqa rivojlangan davlatlarda bu ko`rsatkich XXR bilan deyarli teng. Ammo eng yirik rivojlanayotgan davlatlarning norasmiy ittifoqi hisoblanadiga BRIKS ga a`zo davlatlarning umumiy harbiy xarajatlari NATO ga a`zo davlatlardagidan (mazkur davlatlarda harbiy xarajatlarning qisqarish jarayoni kuzatilayotgan bo`lsa ham) deyarli ikki barobar kam ekanligi

ko`rinib turibdi. NATO davlatlarida qurolli kuchlarni asosan sifat jihatdan yaxshilanishiga ko`proq e`tibor qaratilishi mazkur kamchilikni qoplashi mumkin. n XXR o`z harbiy xarajatlarini eng tez oshirib borayotga davlat hisoblanadi. Shu sababli XXR da kelajakda ichki talab o`sishi va eksport hajmini qisqarishini kuzatishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganimizda XXR harbiy sanoat majmuasining rivojlanishi mamlakat xo`jaligida ichki talab ortishiga olib keladi.

1.2.1-rasm



Rasm muallif tomonidan China government/reuters, ma`lumotlariga asososan tayyorlandi.

1.2.1-rasmdan ko`rinib turibdiki XXR ning harbiy xarajatlari 2008-yildan so`ng jadal sur`atlar bilan o`sib bormoqda. Bunga bir qancha sabablarni keltirishimiz mumkin;

- 2008-yil Gruziya va Rossiya Federatsiyasi o`rtasidagi harbiy to`qnashuv;
- Polshaga AQSH ning raketa hujumiga qarshi himoya vositalarini o`rnatishi va mintaqadagi harbiy kelishmovchilikni vujudga kelishi;
- Tayvanning yangi qurollanish dasturini e`lon qilinishi;
- Yaponiyaning mudofaa vazirligini tashkil topishi (Davlat konstitutsiyasiga zid ravishda):

Xitoyning oxirgi yillarda havoga uchirilgan mazkur yo'nalishning yutuqlarini ko'rsatuvchi dalil sifatida 45 ta urning sun'iy yo'ldoshlarini keltirish mumkin.

Xitoyda hozirgi bosqichda armiyadagi kishilar sonining texnikaga nisbatan, kattaligini e'tiborga olgan holda, parallel tarzda texnik jarayonlar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri- harbiy sanoat majmuasining ahamiyatli qismini konversiyalash bilan birga, imkoniyatlarning cheklanganligiga qaramasdan, mavjud armiyaning bir qismini yangi jihozlar bilan ta'minlash inlari olib borilmoqda. Undagi yangi holatlar shundan iboratki, chet ellardan sotib olinayotgan texnika va texnologiyalar ularning ehtiyot qismlarini Xitoyda ishlab chiqarishga ruxsat beruvchi litsenziyalash tizimini joriy qilinishi bo'ldi.

Ikkinchi jarayonda esa, harbiy sanoat majmuasini ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy fundamentini tubdan yangilash bo'lib, unda kelajakda harbiy texnika va texnologiyalarning yangi avlodini yaratish deb tan olindi.

1.3. Harbiy sanoatning rivojlanishida davlatning roli

Har bir davlat o'z qurolli kuchlarini mustahkamlashga xarakat qilar ekan, uning asosiy vazifasi, davlat byudjetidan harbiy sohaga imkon qadar ko'proq mablag'larni ajratishga urinadi. Xitoy rivojlanayotgan mamlakat maqomiga ega bo'lishi bilan birga, dunyoda o'z mavqeini turli yo'nalishlar bo'yicha oshirmoqda. Shu yo'nalishlardan biri, davlat tomonidan tartibga solish ehtiyojiga muhtoj bo'lgan soha – bu mamlakatning harbiy sanoat majmuasi hisoblanadi va uning shakllanishida davlatning bevosita roli kattadir.

Mamlakatda xukumat rahbarligida 1996-2000 yillarga harbiy sohada mo'ljallangan ishlar qisqa muddatlarda amalga oshirila boshlandi. Bu yo'nalishda harbiy sanoatni modernizatsiyalash bo'yicha 1990-yillarda Xitoy bir necha harbiy texnika va jabdiqlarni ishlab chiqaruvchi jahonning etakchi mamlakatlari bilan, jumladan, Rossiya bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Ular, harbiy ilm sohasida, koinotni o'zlashtirish bo'yicha, aloqa va himoyani ta'minlash bo'yicha, topografiya, fuqorolik himoyalash va konversiya yo'nalishlari bo'yicha tuzilgan shartnomalardan iborat bo'ldi. Bunda Xitoy Rossiyaning harbiy texnikalarini sotib olishga, o'z qadrlarini Rossiyada tayyorlashga, axborot almashish, qurollarni ta'mirlash va modernizatsiya qilishda qo'shma ishlanmalarni amalga oshirishga erishildi.

Xitoy 2000 yillarda Rossiyadan brone tank, raketa va harbiy-dengix texnikasining katta partiyasini sotib oldi.

Yaqin kelajakda, Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini 5-9,5% larda ushla turish ko'zda tutilib, mamlakatda ilmiy-texnik jarayn bilan birgalikda, yangi yuqori texnologiyalarni yaratishga yordam beruvchi milliy dasturlarni amalga oshirilishi mo'ljallandi.

Biroq, mamlakatdagi bir qator jiddiy muammolarning mavjudligi ushbu jarayonlarni moliyalash nuqtai nazaridan qiyinlashtirmoqda, xususan, ular:

- Markaziy va dengizoldi xududlarining iqtisodiy rivojlanishidagi notekisliklar;
- Tabiiy resurslarning tanqisligi;

- Mamlakat aholisining ko'payib borishi asosida, undagi ekologikxolatlarning kuchayishi;
- Harbiy sanoat korxonalaridagi konversiya jarayonining kapital talabligi va tugallanmaganligi;
- Kapital qurilishning "uchinchi zonaga" o'tqazilish holatlari.

Xitoy qurolli kuchlarini modernizatsiyalash va ulardagi harbiylarning sonini qisqartirish jarayoni bilan birgalikda olib borilmoqda. Oxirgi 30 yil ichida mamlakatda ularni keng ekspluatatsiya qilish uchun, 100 ta aerodromlar, 29 ta dengiz va daryo kemalarni to'xtash joylari va doklar, 300 ta temir yo'l liniyalari, 90 ta aloqa liniyalari, 1000 taga yaqin omborxonalar va 3 mln.kv.m. erlar ochildi va ijaraga berildi.

Hozirgi kunda Xitoy armiyasi qutqarish ishlarida, tabiiy ofatlar yuz berganda ham faol qatnashib kelmoqdalar, xususan, ular tomonidan hozirgi kungacha 30 yil davomida 300 mingtadan ortiqroq favqulotda hodisalarda faol qatnashish holatlari amalga oshirilib, 16 mln.dan ortik aholi qutqarildi va 280 mln.t.dan ortiqroq yuklar tashib berildi. Undan tashqari, Xitoy armiyasi yana davlat ahamiyatiga molik bo'lgan asosiy qurilish ob'ektlarini qurilishida ham qatnashib kelmoqdalar.

XXR rahbariyatining ustuvor e'tibori mamlakatning iqtisodiy muammolariga qaratilgan bo'lib, ular asosida yaqin qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikni ko'zlaydi.

Harbiy sanoat majmuasini modernizatsiyalash jarayoni esa, yaqin kelajakda, ular harbiy salohiyatini e'tiborga olgan holda, qurolli kuchlar ta'minlanishini etarlilik tamoyillaridan kelib chiqib, amalga oshirilishi mo'ljallanmoqda.

Xitoyning xalqaro strategik izlanishlar institutini antiterror izlanishlar markazi statistik ma'lumotlariga binoan, oxirgi 5 yil ichida dunyodagi terroristik aktlar yiliga 20% ga o'sgan. 2006 yilda sodir bo'lgan lokal urushlar va qurolli nizolar soni esa, rekord darajaga etgan bo'lib, ular 44 tani tashkil etadi.²⁰

Xalqaro terroristik kuchlarning integratsiyasi kuchayib bormoqda. 2006 yilda dunyoda 665 ta terroristik aktlar sodir bo'lib, uning natijasida 4900 ta kishi nobud

²⁰ International Strategic Studies, 1* Issue, 2007,P.3.

bo'lgan va 10500 kishilar jarohatlanganlar. Faqatgina, 2007-yilning yanvar oyida 43 ta terroristik aktlar sodir bo'lib, unda 378 kishi nobud bo'lgan va 799 kishi jarohatlangandir. Bu esa, ko'rsatkichlarning o'tgan shu davrga nisbatan, ahamiyatli tarzda ko'payganligini anglatadi. Oxirgi paytlarda ko'p hollarda, energetik ob'ektlarga xujumlar ko'payib bormoqda, xususan, Rossiya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Hindiston, Pokiston va Nigeriyalarda ular sodir bo'lmoqda.

Osiyo tinch okeani havzasida xavfsizlik sohasidagi holatlar ikki qarama-qarshi tendentsiyalar orqali kuzatilmoqda. Bir tomondan, barqaror omillarni mustahkamlanishi, mintaqa davlatlari iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda rivojlanishiga olib kelmoqda. Ushbu mamlakatlar orasidagi munosabatlar tenglik va hamkorlikning ko'p shakllaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, ular o'zaro manfaatdorlik iqlimida hamkorlik ishlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Bu borada Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyati doirasidagi amalga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlab o'tish joizdir.

SHHT o'zining rivojlanishida yangi pog'onaga ko'tarilgan bo'lib, davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashning yangi moleini kashf etishda sezilarli ulush qo'shib kelmoqda.

Osiyo tinch okeani mintaqasining yana bir integratsion tashkiloti ASEAN esa, nafaqat, o'z tarkibini konsolidatsiyasida va qurilishida muayyan yutuqlarga erishib kelmoqda, balki, erkin xududlarni tashkil etish bo'yicha kelishuvlarda ham, nisbatan, yaxni natijalarga erishmoqdalar.

Umuman, Sharqiy Osiyo davlatlari hamkorliklari ASEAN, XXR, Yaponiya va Janubiy Koreya (10Q3) mexanizmi orqali amalga oshirilib, kengaytirilib borilmoqda va Osiyo tinch okeani (OTO) mintaqasining rivojlanishida asosiy tinchlik sharoitlarini ta'minlovchi rolni o'ynamoqda.


Ikkinchi tomondan esa, mintaqadagi holatlarni murakkablashtiruvchi omillarning ko'payib borishi, ayniqsa, AQSh ning tez sur'atlarda o'z harbiy sohasini qayta qurishga olib keluvchi o'z harbiy salohiyatini oshirish maqsadlarining mavjudligi, ikki davlat harbiy qurolli kuchlarini o'zaro operativ

xarakatlanishini ta'minlash yo'nalishlaridagi yapon-amerika alyanslarining vujudga kelish holatlaridir.

Iroq va Afg'onistondagi holatlarning barqaror emasligi, Eronni yadro qurolini texnologiyasini o'zlashtirish bo'yicha xarakatlarining keyinchalik ahvolini aniq emasligi hamda mintaqadagi xududiy nizolarning mavjudliklari, mamlakatlar orasidagi ishonchni yo'qotishga olib kelmoqda va hanzgcha mintaqadagi terrorism, separatizm hamda ekstremizmning xavflarining qolayotganligi jiddiy muammolarni tug'dirib kelmoqda.

1.3.1-rasm

**XXR hukumati tomonidan harbiy sanoat majmuasini isloh etishi
shartlari**



Rasm muallif tomonidan Оборонная промышленность и торговля вооружениями КНР / М. С. Барабанов, Б. В. Кашин, К. В. Макиенко – М.: 2013. С. 178., ma'lumotlariga asosan tayyorlandi.

Xitoy o'z milliy, suveren va xududiy bir butunligi xavfsizligiga eng ko'p ta'sir etuvchi omillar yaqin kelajakda ham Tayvan, Sintszyan-Uyg'ur avtonom rayoni mustaqilligi uchun chiqayotgan separatizm faoliyati natijasi deb biladi va ularga yo'l qo'ymaslikka doimiy ravishda xarakat qilib kelmoqda.

Xitoyning harbiy xavfsizlik sohasidagi strategiyasi - mamlakat atrofida nobarqarorlik omillarini kamaytirishga va qulay sharoitlarni yaratishga qaratilgan,

siyosiy, diplomati va iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan choralarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Shular bilan bir vaqtda, Xitoy xarbiy sohada dunyo tendentsiyalariga rioya qilgan holda, o'z iqtisodiy kuch-qudratiga tayangan holda, ilm va ilg'or texnologiyalarga asoslangan holda, o'z harbiy salohiyatini oshirish va uni takomillashtirish kursini amalga oshirmoqdadir.

II BOB. XITOIY HARBIY SANOAT MAJMUASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA MUAMMOLARI

2.1. XXR harbiy sanoatning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlili.

Iqtisodiy islohotlarning davom etish sharoitlarida Xitoy harbiy siyosatining asosiy xususiyati – qurolli kuchlarga ketadigan moliyaviy xarajatlarga ratsional yondashuvdan va ularni nisbatan yuqori bo'lmagan darajalarda ushlab turishdan iboratdir. (jadval 2.1.1.)

Xitoy harbiy qurolli kuchlarini qurilishini amalga oshirishda ularni ta'lim jarayonlarini va harbiy xarakatlari imkoniyatlarini oshirish maqsadida mazkur yo'nalishni mexanizatsiyalash va axborotlashtirish kursi belgilab oldi.

XXOA talablaridan kelib chiqqan holda va xalq himoyasini rivojlantirish imkoniyatlari strategiyasi asosida, mamlakatda harbiy sohani rivojlantirish bilan birgalikda, uning siyosiy, iqtisodiy va diplomatik yo'nalishlarini ham rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirmoqda.²¹

2001-yilda Tszyan Tszemin tomonidan mamlakatning harbiy sohasi salohiyatini strategik rivojlantirish va ularni modernizatsiya qilish tezisi ishlab chiqildi va e'lon qilindi. Unga ko'ra, XXI asr o'rtalarigacha mazkur sohani yangilash o'z ichiga oluvchi 3 bosqichni qamrab oladigan reja ishlab chiqildi:

- **1-bosqichda** 2000-yillarga bo'lgan davrda ushbu sohada o'zgarishlarni asosini yaratish;

- **2-bosqichda** 2000-2020 yillargacha Xitoy qurolli kuchlarini Osiyoda eng kuchliga aylantirish;

- **3-bosqichda** 2020-2049 yillarda mamlakatni modernizatsiya qilishni tugatish va rivojlangan mamlakatlar qurolli kuchlari darajasiga etishdan iborat bo'ldi.²²

Mazkur strategik maqsadlarga erishish uchun XXR dastlab harbiy sanoat majmuasi rivojlangan davlatlar yordamiga tayanishni mo'ljallagan edi ammo XXR


²¹ Барабанов М.С. Кашин Б.В, Макиенко К. В. Оборонная промышленность и торговля вооружениями КНР /– М.: 2013. С. 57.

²² “Чжунго янцзю” 02.2013.С.94.,

tomonidan xalqaro mualliflik huquqi normalari va harbiy sanoatda josuslik ishlarini bartaraf etishdagi sustkashlik mazkur rejani amalga oshishiga yo'l qo'ymadi.²³

2.1.1-rasm

XXR tomonidan noyadroviy qurollar bilan nazorat qilinishi mumkin bo'lgan hududlar.



Rasm muallif tomonidan SIPRI (Tinchlik muammolarini tadqiqot qilish xalqaro Stokgolm instituti) ma'lumotlariga asosan tayyorlandi.

²³ Чуприн К. В. Военная мощь Поднебесной. Вооруженные силы КНР. М., 2007. С. 114 .

2.1.1-rasmdagi yashil (och yashil dengiz hududlari) rang bilan belgilan hududlar Xitoyning boshqa qo'shni davlatlar bilan mavjud hududiy muammolari chegaralari keltirilgan bo'lib bu hududlarga Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasining hozirdagi mavjud texnik qurollanishi yordamida har qanday harbiy operatsiyalarni bajarishi mumkin deb hisoblanadi.²⁴ Sariq rangda berilgan hududlarda hozirgi kungacha XXOA faqatgina harbiylar yordamida noharbiy operatsiyalarni bajarishga ulgurdi (Aden bo'gozida Somali qaroqchilarga qarshi kurashni hisobga olmaganda) va bu bilan hozirda mintaqadagi boshqa davlatlarga o'z harbiy salohiyatini o'sganini namoyish qildi (Bu hudud tarkibiga Tayvan, Yaponiya, Filippin, Janubiy Koreya va Vyetnam kiradi. Bu davlatlar Xitoy uchun mintaqadagi ustunlik yo'lidagi shartli raqiblar hisoblanadi). Qizil hududda har qanday harbiy operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beruvchi texnologik qayta qurollanish va harbiy kadrlar tayyorlash dasturi qabul qilingan va taxminan 2030-yillarga borib bu maqsadga ham yetish mo'ljallangan.²⁵ Qizil hoshiya bilan belgilangan orollar zanjiri Osiyo Tinch Okeani mintaqasidagi eng strategik muhim nuqtalar hisoblanib shu hududlar nazoratini qo'lga olgan davlat mintaqada o'zining ustunligini to'liq o'rnatib bo'ladi (Hozirda bu orollar zanjiri AQSH va unig ittifoqchilari Yaponiya, Janubiy Koreya, Filippin va Tayvan nazorati ostida).

Hozirgi kunda XXR uchun noyadroviy harbiy salohiyatni oshirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.²⁶ Chunki xalqaro maydonda sodir bo'layotgan mintaqaviy mojarolarda asosan tez harakat qila oladigan, yuqori texnologik qurollangan, ixcham va yaxshi tayyorgarlik ko'rgan armiyaning zarurligi bir necha bor isbotlanib ulgurdi.²⁷

Hozirgi kunda jahon qurol-yarog' bozoriga nazar soladigan bo'lsak unda asosiy iste'molchi davlatlarning o'zi bir vatqning o'zida ishlab chiqaruvchilar

²⁴ <http://www.sinodefence.com/strategic/default.asp>

²⁵ Кузьмин С. Л. Скрытый Тибет: история независимости и оккупации. С.- Петербург: изд. А. Терентева, 2010. С. 296.

²⁶ www.xinhuanet.com.cn/cis/index.html

²⁷ Каримов И. Танланган асарлар. Том 3. ВАТАН САЖДАГОҲ КАБИ МУҚАДДАСДИР. IV. МИЛЛИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Б. 33.

ekanligiga ham guvoh bo`lamiz (2.1.1-jadvalga qaralsin). Bu tendensiyaning biz
XXR harbiy sanoat majmuasi faoliyatida ham ko`ramiz.

2.1.1-jadval

**Dunyoning eng ko`p harbiy byudjetga ega davlatlari o`ntaligi va
ularning jahon bozoridagi ulushi (2013)**

Davlat nomi	Harbiy byudjet (mlrd \$)	Dunyo bozoridagi ulushi (%)
AQSH	739,3	45,7
XXR	89,8	5,5
Rossiya	62,7	3,9
Buyuk Britaniya	58,8	3,6
Fransiya	58,4	3,6
Yaponiya	52,7	3,3
Saudiya Arabistoni	46,2	2,9
Germaniya	44,2	2,7
Hindiston	37,3	2,3
Braziliya	36,6	2,3

Jadval muallif tomonidan IISP Стокгольмский международный институт исследования проблем мира.
<http://www.sipri.org/> ma`lumotlariga asosan tuzildi.

Jadvalda dunyoning eng yirik harbiy byudjetga ega davlatlarining o`zi bir vaqtning o`zida uning iste`molchisi ekanligini ham ko`ramiz. Demak yirik harbiy sanoat majmuasiga ega davlatlarda majmualar uchun xaridorlar ana shu davlatning o`zi bo`lishi ma`lum bo`ldi. Xitoy va Rossiya qurol eksporti asosan rivojlanayotgan davlatlarga to`g`ri kelgani bois kelajakda bu davlatlardagi harbiy sanoat majmualarining rivojlanishi kutilmoqda (2.2.1-rasm).²⁸

XXOA ning modernizatsiya qilinishi harbiy sanoat majmuasining ko`proq quyidagi qo`shin turlari uchun texnik vosita va qurollar ishlab chiqarilishi bilan yo`naltiriladi;


— Harbiy havo kuchlari;

²⁸ [Sipri.org/milex_databases_china_MIC/](http://www.sipri.org/milex_databases_china_MIC/)

- Harbiy dengiz qo`shinlari;
- XXOA ning 2-artelleriya korpusi

Mazkur uch qo`shin turi uchun harbiy sanoat majmuasi birinchi galda texnologik jihatdan yangi vositalar ishlab chiqaradi.

2.1.2-rasm




Rasm muallif tomonidan <http://www.bbc.co.uk/russian/business/2015/03/150316chinaarmstradesipri> ma`lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Ammo Xitoy harbiy sanoat kompleksining jahon bozoridagi o`rni mustahkam emas, buning sababi sifatida sanoat kompleksining AQSH yoki Rossiya sanoat kompleksi darajasida rivojlanmaganligi va yuqori texnologik qurollarni ishlab chiqarishda ortda qolayotgani bilan izohlanadi. Bozordagi XXR ulushi bo`lgan 5% ham asosan rivojlanayotgan Afrika va Osiyo davlatlariga nisbatan arzon va professional bo`lmagan armiyalarni qurollantirishga mo`ljallangan harbiy texnika va qurol-yarog`larni eksporti hisobiga to`gri keladi.

2.1.2-rasmda dunyo bozoridagi harbiy sanoat majmuasiga ega davlatlarning jahon qurol yarog` bozoridagi ulushi ko`rsatib berilgan, bu jadvaldagi o`lchov birligi qurol-yarog`larning natur birligi emas balki ularning qiyamati olingan shu sababli AQSH va Rossiya Federatsiyasining bozordagi ulushi katta qismni tashkil qiladi. Agarda biz yangi imzolangan shartnomalar soni va yetkazib berilgan harbiy

texnika natur birligi sonini olib qaraydigan bo'lsak XXR ning ulushi 10,8% gacha ko'tariladi.²⁹

2.1.3-rasm



Rasm muallif tomonida Международный институт стратегических исследований (IISS) ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

XXR harbiy xarajatlari hajmi bo'yicha taxminan 2032-2034 yillarda AQSH ga yetib olihsi va uni quvib o'tishi ham mumkin. Bu o'sish asosan XXOA ni qayta qurollantirish va harbiy sanoat kompleksininig ishlab chiqarish kuchlarini yangilash, yadroviy qurollarni takomillashtirish hisobiga amalga oshishi taxmin qilingan.³⁰

Ammo mazkur harajatlarning yirik bo'lishini yana bir sababi XItoyda 1980-1990 yillarda boshlangan texnikaviy ta'minot rejalarini oxiriga yetkazilmagani uchun armiyani qayta taminlash ishlariga katta harajatlar ajratilishi ko'zda tutilgan.

²⁹ SIPRI Yearbook 2014 (OxfordUniversity Press: Oxford, 2014). P. 49.

³⁰ Официальная газета НОАК «Цзефанцзюньбао» (解放军报). <http://www.chinamil.com.cn/site1/xwpdxw/gjjsxw/2014-07/30/gjjsxw.htm>

1980-1990 yillardagi rejaning bajarilmasdan qolishiga sabab bo'lib sanoatning boshqa sohalarida amalga oshirilgan qayta qurilish va zarar ko'rib ishlagan yirik korxona va zavodlarni qayta kapitallashtirishga qaratilgan moliyaviy manbalarni ko'p bo'lganligi ko'rsatiladi.³¹

³¹ Вооруженные силы зарубежных стран. Справочные данные // Зарубежное военное обозрение. – 2005. – №1 с. 29.

2.2. Xitoy harbiy sanoat majmuasining rivojlanish muammolari va istiqbollari.

2006-yilni oxirida XXI asr o'rtalarigacha bo'lgan 3 bosqichda mamlakat milliy qurolli kuchlarini modernizatsiya qilish dasturini qabul qilinganligi Pekin tomonidan e'lon qilindi va ular quyidagilardan iborat bo'ldi:

- 1-bosqich- 2010-yilgacha sohadagi o'zgarishlarning fundamental asosini yaratish;
- 2-bosqichda 2020-yillargacha modernizatsiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarda umumiy rivojlanishiga erishish;
- 3-bosqichda 2040-2050 yillargacha asosan, strategik maqsad hisoblangan va axborot texnologiyalarini joriy qilish asosida bo'lajak harbiy xarakatlarda muvaffaqiyatli qatnashish qobiliyatini oshirish hamda Xitoy qurolli kuchlarining axborotlashtirilishiga erishishdan iboratdir.


Dastur doirasida mamlakatda qurolli kuchlarni modernizatsiyalash uchun fundamental o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonini kechiktirilishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, mamlakatda mazkur sohani rivojlashtirishda muayyan qiyinchiliklarni mavjudligini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda Xitoy o'zining o'sib borayotgan iqtisodiy kuch-qudratiga tayangan holda, o'z harbiy sohasiga yo'naltirilgan xarajatlarini ham oshirib bormoqda. Bu xarakatlar o'z navbatida, XXOA ning harbiy xarakatlarini imkoniyatlarini oshirish bilan bog'liq bo'lmoqda.

Undan tashqari, yildan-yilga qurollanish tizimi qimmatlashib borayotgani, jahon bozorida yoqilg'i-energetika mahsulotlariga narxning ortishi va mavjud zobit va oddiy harbiylar maoshining o'sishi bilan ham bog'liqdir.

Ko'pchilik soha mutaxassislari va analitiklarining fikricha, Xitoy qurolli kuchlarining real xarajatlari doimiy ravishda uning rasmiy xarajatlaridan ortib bormoqda. U esa, XXOA ni rivojlantirish va uni har tomonlama ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, ular o'z navbatida yadro kuchlari strategiyasiga yo'naltirilgan yirik xarajatlar statyalarini va chet ellardan harbiy texnika va qurol-aslahalarni sotib olishni hamda harbiy Ilmiy-izlanishlar va loyiha-konstruktorlik ishlarini va yarim harbiy korxona va muassasalarning xarajatlarini o'z ichiga qamrab olgandir.

Xitoyning 2-artelleriya korpusi qurollanishida boʻlgan ballistik raketalar yadroviy zarba berish chegarasi



Rasm muallif tomonidan SIPRI statistical yearbook 2014. (Oxford University Press 2014). manbasi ma'lumotlariga asosan tayyorlandi

2.2.1-rasmda XXOA nig 2-artelleriya korpusiga tegishli boʻlgan “Dunfen 41” (qizil rangdagi chegara), “Dunfen 26” (havorang koʻk rangdagi), “Chanchjen 2-3-4” (yashil) va “Chanchjen-5” (zargʻaldoq), “Chanchjen-5A” (qizil) rusumli ballistik yadro kallakli raketalarni zarba berish chegaralari koʻrsatib oʻtilgan. Mazkur sohaning harbiy sanoat majmuasi 1950-yillarda SSSR koʻmagida tashkil qilingan boʻlib hozirgi kungacha faqatgina son jihatdan yaxshilanib kelayotgan edi. Harbiy sanoat majmuasining rivojlanishi qiyin va muammoli boʻlgan mazkur sohadagi ustunlik faqatgina AQSH va Rossiya Federatsiyasiga tegishli hisoblanadi. Dunyoning boshqa davlatlaridagi (Yevropa Ittifoqi, Hindiston va Xitoy) bu sohaning rivojlanishi AQSH va Rossiyadagi 1970-yillar texnologik holati bilan baholanadi. Bunga sababni quyidagi jadval orqali yaqqol koʻrishimiz mumkin.

Dunyoning yadroviy kuchlari taqsimoti (2014-yil yanvar xolati bo'yicha)

Davlat	Yadroviy qurolga ega bo'lgan yili	O'rnatilgan kallaklar (soni birlikda)*	Boshqa kallaklar	Umumiy kallaklar soni (soni birlikda)
AQSH	1945	1920	5380	7300
Rossiya	1949	1600	6400	8000
Buyuk Britaniya	1952	160	65	225
Fransiya	1960	290	10	300
XXR	1964	...	250	250
Hindiston	1974	...	90-110	90-110
Pokiston	1998	...	100-120	100-120
Isroil	...	...	80	80
KXDR	2006	...	6-8	6-8
Umumiy		3970	12350	16300

Jadval muallif tomonidan SIPRI Yearbook 2014. (Oxford University Press 2014) ma'lumotlariga asosan tuzildi.

Izoh: *jangovor shay turgan yadroviy kallaklar soni. Kallak – yadroviy zaryad (raketaning yadroviy portlovchi qismi)


Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki to'liq yadroviy ustunlik AQSH va Rossiya Federatsiyasiga tegishli. Bundan tashqari ularning har bir ballistik raketasi bir vaqtning o'zida bir necha yadroviy zaryadlarni dunyoni istalgan nuqtasiga yetkazib bera oladi. XXOA 2-artelleriya korpusida qurollanishda turgan raketalarining bu kabi texnologik ustunlikga erishishi uchun ilmiy va sanoat bilan bo'g'liq bo'lgan muammolari mavjud. Faqatgina 2015-yilning may oyi o'rtalarida XXR da bir vaqtning o'zida 3 tagacha yadroviy zaryadni 14 ming km uzoqlikgacha olib boradigan raketa ishlab chiqilgani ma'lum bo'ldi.³²

Ma'lumki, oxirgi yillarda Xitoyda davlat byudjetining xarajatlar qismi ayrim sohalarda ko'payish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2006-yilda Xitoyda harbiy sohaga markaziy byudjetdan ajratilgan mablag'lar – 35 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi. Agar, uni 2005-yilga nisbatan qiyoslasak, u 14,7% ga ko'proq

³² Портал «Chinatoday». <http://www.chinatoday.com/arm/>

ekanligini va byudjetning umumiy xarajatlarini 7,4% ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Shunday bo'lsada, mazkur ko'rsatkich, boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda unchalik katta emasligini ko'rmiz, ya'ni Yaponiyada ushbu sohaga yiliga taxminan 45-mlrd.AQSh doll., Amerikada esa, yiliga 300 mlrd. doll. atrofida mablag' sarflanadi.³³

2.2.2-rasm



Rasm muallif tomonidan www.sipri.org mabaga asosan tayyorlandi.

Dunyoda harbiy xarajatlarning qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda, qurol yarog' bozorining katta qismi Janubi Sharqiy Osiyo mintaqasiga to'g'ri kelmoqda. XXR ning bu mintaqadagi faolligi baland bo'lib, bu faollik mazkur mintaqada joylashgan davlatlar bilan dunyoning boshqa harbiy sanoat majmuiga ega davlatlari bilan a'loqalarning yomonligi yoki mazkur davlatlardagi harbiy byudjet taqchilligi bilan izohlanadi.


Bundan tashqari mazkur mintaqadagi bozor hajmi ham qolgan mintaqalarga nisbatan juda kichik hisoblanadi. Iqtisdiy nuqtai nazardan mazkur hududlar bilan a'loqa o'rnatishning foydalilik darajasi kam bo'lishi mumkin, lekin geosiyosiy nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa mazkur hududlardagi XXR ning faollashuvi

³³ www.globalfirepower.com. Faqatgina harakatdagi armiyaning ekspulatsion harajatlari ko'rsatilgan.

unga yangi strategik hamkorlarni beradi va uning xalqaro maydondagi obro`yi va e`tiborini oshiradi.

2.2.3-rasm

Xitoy harbiy sanoat majmuasi rivojlanishining asosiy muammolari



Rasm muallif tomonidan Макиенко К. Российско-китайское военно-техническое сотрудничество: Прошлое и возможные перспективы // Военный парад. 2006. № 6, manbasiga asosan tayyorlandi.

Har qanday armiyaning qudrati birinchi galda uning zobitlarida o`z aksini topadi. XXOA zobitlarining harbiy tayyorgarlik darajasi asosan XXR hududida olib boriladigan harbiy harakatlar uchun yetarli hisoblanadi. Mazkur kamchilik XXR ning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishi XXOA zobitlarini Rossiya Federatsiyasidagi Oliy Harbiy Bilim yurtlarida ta`lim olishiga yo`l ochildi (Bu vaqtgacha SSSR va XXR o`rtasida sovuqchilik munosabatlari o`z yechimini topmagani uchun bu kabi kadrlar almashinuvi to`xtab qolgan edi) ammo Rossiya tomonidan yetkazib berilgan harbiy texnikani XXR tomonidan Rossiya ruxsatisiz boshqa nomda ishlab chiqarila boshlanishi bu munosabatlarga ham chek qo`ydi. 2002-yilda “Rosoboroneksport” qaroriga binoan XXR ga Rossiya tomonidan sotiladigan harbiy texnika sotuvi to`xtatib qo`yildi, va shu bilan XXR ga oxirgi yuqori texnologik harbiy sanoat majmuiga ega bo`lgan davlat harbiy texnikasini kiritilishi to`xtadi. Bu voqealardan sal oldiroq shu kabi sabab bilan Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniya o`z harbiy texnikasini XXR ga sotishni to`xtatgan


edi. Bu shusiz ham texnologik jihatdan qoloq bo'lgan XXR harbiy sanoat majmuasini yanada qiyinroq ahvolga soldi.

XXR ning shartli raqibi hisoblanadigan Tayvanda esa Yevropa va AQSH ning texnik-texnologik yordamida hatto hozirda ham XXR armiyasiga yetkazib berilgan har qanday harbiy texnikadan ko'ra ancha yuqori texnologik texnika bilan jihozlangan armiya shakllantirib ulgurilgan. Tayvan armiyasining sifat jihatdan XXR armiyasidan ustunligi vaqti vaqti bilan bo'lib turadigan qurolli to'qnashuvlarada o'z isbotini topadi.

XXR dagi ichki barqarorlikni to'liq ta'minlabmaganligi oqibatida harbiy xarajatlarning salmoqli qismi muammoli hududlarda qurolli kuchlar va tartibni saqlashga qaratilgan boshqa tuzilmalarni saqlashga sarflanishiga olib keladi (Qurolli politsiya).

2001-2006 yillarda XXR ning harbiy xarajatlarining o'sish sur'atlari uning iqtisodiy o'sish sur'atlaridan o'rtacha 1.5 marotabaga, ya'ni 14,3% ga (8,5% o'rniga) o'sganligini ko'ramiz.

2.2.4-rasm




Rasm muallif tomonidan www.sipri.com manbasiga asosan tayyorlandi.

AQSH ning harbiy xarajatlari qolgan barcha davlatlarning umumiy harbiy xarajatlaridan birlashtirilganda ham ko`proq. AQSH armiyasining soni esa umumiy yordamchi qo`shinlar bilan qo`shib hisoblanganda 2 mlnda oshadi. Harbiy xarajatlarning ko`pligi esa bu sohada amalga oshiriladigan tadqiqot ishlari va qo`shinni doimiy ravishda yangi qurol aslaha bilan ta`minlanishi bilan izohlanadi.

Xitoyda harbiy sanoat majmuasining rivojlanishi bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, unda milliy harbiy kuchlarni sifat jihatdan takomillashtirishni ta'minlashga yordam beruvchi ilmiy-izlanish va ishlab chiqarish salohiyatini yaratishga qaratilgandir. Shunga qaramay baribir XXOA ni texnik jihatdan qayta ta'minlashga qaratilgan ishlarga ilmiy izlanishlarga qaraganda ko`proq mablag` sarflanmoqda.³⁴

2.2.5-rasm

XXR harbiy sanoat majmuasida ilmiy ishlanmalar uchun moliyaviy manbalarni ajratilishi tizimi



Rasm muallif tomonidan Институт стран Азии и Тихоокеанского региона. http://www.isatr.ru/rus/c_inform/china/cn_minerals_rus.shtml, manbasiga asosan tayyorlandii.

2.2.5-rasmda XXR harbiy sanoat majmuasida harbiy ishlanmalar uchun tushadiga takliflarning tizimi keltirilgan bo`lib undan ko`rinib turibdiki armiya

³⁴ Kane T.M. Chinese Grand Strategy and Maritime Power. London, 2002. P. 41.

uchun zarur bo'lgan qurol-yarog' harbiy texnikani ishlab chiqilishga kirishishining o'zi muammoning aktuallik davridan so'ng bo'lishi mumkin.

XXR o'z harbiy sanoat majmuasini yaratishdan tortib zamonaviy talablar darajasida rivojlantirishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tmoqda. XXR harbiy sanoat majmuasining 1970-1980 yillardagi ahvolidan ancha yaxshilandi, undan tashqari XXR o'z qo'shnilari bilan yaxshi munosabatlar o'rnatib boshladi. Bu vaqtgacha Mao Sze Dun ta'biri bilan aytganda Xitoyning Xitoydan "tashqarida" gi hududlari 10 mln km² ziyodroq edi³⁵. Insoniyat tarixida zamonaviy xalqaro munosabatlar shakllanganidan buyon hech qaysi davlatning o'z qo'shnilariga nisbatan bu darajada katta hududlarni da'vo qilishi ko'rilmagan.³⁶ Bu kabi hududiy talabalar tufayli XXR paydo bo'lganidan buyon deyarli barcha qo'shnilari bilan jang qilib chiqdi. Lekin XXR da islohotlar boshlangandan so'ng XXR Hindistondan tashqari deyarli barcha hududiy muammolarini bartaraf qilib bo'ldi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan o'zaro hamkorlik a'loqalari kengayib bormoqda. Bu hamkorlik iqtisodiy va SHHT doirasida siyosiy va harbiy jihatlarni olgan.

2006-yilda mamlakatdagi harbiy va fuqorolik mahsulotlarini ishlab chiqarishlarning nisbati 36:64 ni tashkil etdi.

2002-2009 yillarda Xitoy qurolli kuchlari 11 ta davlat bilan 21 ta qo'shma harbiy o'quv mashg'ulotlarida faol qatnashdilar.

2007-yilda Xitoy birinchi marotaba ShHT ning (ShOS) "2007-tinchlik missiyasi" deb nomlangan ko'ptomonlama antiterroristik harbiy xarakatlarida ta'a'zo davlatlar bilan birgalikda (O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston) qatnashdi.

Mazkur 2010-yilda Xitoy ShHT ning Toshkentda bo'lib o'tgan sammitiga ham faol qatnashdi va unda 11 iyun kundagi majlisida ShHT ga a'zo davlatlarning antiterroristik va antinarkotik xavfsizlik masalalari ko'rib chiqildi va harbiy sohada hamkorlik qilishning kelajak istiqbollari belgilandi.

³⁵ XXR hududi 9.6 mln km²

³⁶ Рожинцев А. Четыри стороны мира под одной крышей, или где воевал Китай? М.: 2009. С. 188.

XULOSA

Bugungi kunda xalqaro maydonda harbiy xavfsizlik sohasidagi ahvol xitoy va jahon mutaxassislarining fikricha, barqaror bo'lishiga qaramay, dunyoviy jarayonlarning qarama-qarshiliklari va murakkabliklari bilan tavsiflanadi. Shu bilan bir qatorda, davlatlararo munosabatlarda ustivor yo'nalishlar bo'lib, tinchlik va rivojlanish jarayonlari qolmoqda, noaniqlik va nobarqarorlik omillari kuchaymoqda.

Iqtisodiy globalizatsiya jarayonining tezlik bilan intensiv tarzda rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimoti sohasidagi tub o'zgarishlar, tez sur'atlarda texnologiyalarning va ilm-fanning rivojlanishini jadallashtiradi, global va xalqaro darajada iqtisodiy hamkorliklarni rivojlanishiga yordam beradi va davlatlarning o'zaro bir-birlariga bog'liqliklarini kuchaytiradi. Ko'pchilik davlatlar xavfsizlik yo'nalishlarida yuzaga kelgan va rivojlanish muammolarini, davlatlararo dialoglar yordamida hamda kuchlarni muvofiqlashtiruv va hamkorlik orqali hal etishga xarakat qiladilar.

Xitoyning 2001-yildagi 3-bosqichli milliy qurolli kuchlarini yangilash dasturi ijobiy natijalarni to'liq bermaganidan so'ng, 2006-yilni oxirida yana XXI asr o'rtalarigacha bo'lgan 3-bosqichda mamlakat milliy qurolli kuchlarini modernizatsiya qilish dasturini qabul qilindi va u Xitoy davlati rahbariyati tomonidan e'lon qilindi va ular quyidagilardan iborat bo'ldi:

I bosqich 2010-yilgacha sohadagi o'zgarishlarning fundamental asosini yaratish;

II bosqichda 2020-yillargacha modernizatsiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarda umumiy rivojlanishga erishish;

III bosqichda 2050-yillargacha asosan, strategik maqsad hisoblangan va axborot texnologiyalarini joriy qilish asosida bo'lajak harbiy xarakatlarda muvaffaqiyatli qatnashish qobiliyatini oshirish hamda Xitoy qurolli kuchlarining axborotlashtirilishiga erishishdan iboratdir

Mana shu ikki dasturni qiyoslaydigan bo'lsak, mamlakatda qurolli kuchlarni modernizatsiyalash uchun fundamental o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonini

kechiktirilishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, mamlakatda mazkur sohani rivojlashtrishda muayyan qiyinchiliklarni mavjudligini ko'rsatadi.

Xitoyning harbiy xavfsizlik sohasidagi strategiyasi - mamlakat atrofida nobarqarorlik omillarini kamaytirishga va qulay sharoitlarni yaratishga qaratilgan, siyosiy, diplomatik va iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan choralarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Shular bilan bir vaqtda, Xitoy xarbiy sohada dunyo tendensiyalariga rioya qilgan holda, o'z iqtisodiy kuch-qudratiga tayangan holda, ilm va ilg'or texnologiyalarga asoslanib, o'z harbiy salohiyatini oshirish va uni takomillashtirish kursini amalga oshirmoqdadir.

Xitoy uchun xalqaro andozalarga javob bera oladigan, o'zgaruvchan holatlarda o'z harbiy salohiyatini yo'qotib qo'ymaydigan Qurolli kuchlarni shakllantirish muammosi bir qancha to'siqlarning borligi bilan izohlanadi.

XXOA ning vujudga kelgan paytdagi harbiy ishi va unig hozirgi zamonaviy qurolli to'qnashuvlar bilan mos kelmasligi;

XXOA asosan vatan uchun o'z yerida ozodlik kurashi sharoitida paydo bo'lgan va shu sababli (o'z uyida kurash olib borganligi) dushmanga nisbatan ustunlikni bergan. Natijada XXOA ko'proq qo'pol harakatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan "olamon" ga aylanib qoldi. Bunga sabab XXR hukumatining XXOA zimmasiga qurolli kuchlar bajarmaydigan vazifalarni ham qo'yishi bo'ldi. XXOAning isloh qilinishidan oldingi xolati ko'proq qonli mudofaaga mos edi. Xitoyning hududiy talablari (qo'shnilariga nisbatan eng ko'p shikoyat va muammoli hududlari bor davlatlar ichida yetakchilik qiladi) va qiziqishlarini himoya qilishda ojizligini ko'rsatib qo'ydi. Bunga misol XXR tomonidan 1979-yil bahorida Kambodjadagi Qizil Kxemerlarni himoya qilish bahonasi bilan Vyetnam hududiga o'z qo'shinini kiritishi XXOA uchun og'ir oqibatlariga olib keldi. Mazkur urush 2 oydan uzoqroq davom etmay turib Yer yuzidagi eng ko'p sonli armiyani deyarli tor-mor qilgan kichik Vyetnam armiyasi g'alabasi bilan yakunlandi.

Aynan mana shu to'qnashuv XXOA da keng ko'lamli islohatlarni boshlanishiga katta turtki bo'ldi. XXR harbiy sanoat majmuasi shu vaqtdan

boshlab songa emas qurolli kuchlarni yuqori sifatli harbiy texnika bilan ta'minlashga o'z faoliyatini yo'naltira boshladi.

Hozirgi vaqtda Xitoyning XXOA si dunyoning eng yaxshi qurollangan qurolli kuchlari qatoridan joy olishga yaqin qolgan dunyo davlatlari qurolli kuchlaridan biri hisoblanadi. Xitoyning iqtisodiy jihatdan tez sur'atlar bilan rivojlanish ham uning o'z chegaralaridan yiroqlarda turli qiziqishlarini paydo bo'lishiga olib keldi, Barchaga ma'lumki o'z chegaralaridan yiroqda bo'lgan qiziqishlar va foydalar tezkor, ixcham va aniq harakatlana oladigan qurolli kuchlarsiz himoya qilinmaydi. Bu maqsadga erishish uchun esa yuqori taraqqiy etgan harbiy sanoat majmuasi lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari va Prezident asarlari.

- 1.1. Prezident Islom Karimovning 2014-yilning asosiy yakunlari va 2015 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- 1.2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 1993.
- 1.3. Karimov I.A. Iqtisodiy islohot: mas'uliyatli bosqich. – T.: O'zbekiston, 1994.
- 1.4. Karimov I.A. O'zbekistonnig siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari - T.: O'zbekiston, 1995.
- 1.5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995.
- 1.6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
- 1.7. Karimov I.A. Mulkdorlar sinfini shakllantirish - islohotlarning bosh mezon. G'G'Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. - T.: O'zbekiston, 1997. 5-tom.

2. Maxsus adabiyot va darsliklar.

- 2.1. Авдокушин Е.Ф. Теоретические основы экономической реформы в КНР. М. ВЗПИ А/О «Рос вузнаука», 2012. 216с.
- 2.2. Арбатов А. Г., Дворкин В. З. Ядерное сдерживание и нераспространение. Моск. Центр Карнеги. — М., 2005.
- 2.3. Краткий обзор экономических реформ в Китае//Экон. обозрение.Ташкент, 2012- № 4-5, с.12-19.
- 2.4. Ван Мэнкуй и др. Экономика Китая, Изд-во межконтинентального Китая, Пекин, февраль 2005 г. с. 114.
- 2.5. Государство и социальные реформы. / Доклад о человеческом развитии,2005 г.
- 2.6. Ганшин Г.А. Экономическая реформа в Китае: эволюция и реальные плоды.М.: 1997,207с.

- 2.7. Мировая экономика: прогноз до 2020 г. под ред. акад. А.А. Дынкина, Москва, магистр, 2007. 429 с.
- 2.8. Троякова Т.Г. Экономическое развитие стран АТР: (Учебн. пособие).
- 2.9. Свешников А.А. Концепции КНР в области внешней политики и национальной безопасности. М: МГИМО(У), РОССПЭН, 2011.
- 2.10. Чуприн К. В. Военная мощь Поднебесной. Вооруженные силы КНР. М., 2012.
- 2.11. Annual Report to Congress: Military Power of the People's Republic of China 2014. (Office of the Secretary of Defense)
- 2.12. Кузык Б. Н., Никольский В.И., Новичков Н.Н., Военные флоты мира. Справочник. – М.: ООО "Национальный центр научно-технической информации", 2011. С. 1028

3. Jurnal va maqolalar.

- 3.1. «Белую книгу КНР по вопросам национальной обороны, 2006» <http://www.china.org.cn/english/features/book/194485.htm>).
- 3.2. Наумов И.Н. Стратегия экономического развития КНР в 1996-2020 гг. и проблемы ее реализации /РАН Инс-т ДВ.-2001, с.200.
- 3.3. Наумов И.Н. Народное благосостояние в КНР на рубеже веков //Труд. за рубежом, - 2001.- № 4, с.68-82.
- 3.4. Ловушки либерализации (Китай и ВТО) /{Михеев В.В., Потапов М.А. и др.; Отв. Ред. Потапов М.А.}; РАН Инс-т ДВ,-М., 2001, с.178..Котляров И.Н. Внутренние факторы экономического развития КНР.// Фин.бизнес, 2002, №4,- с.16-19.
- 3.5. Стратегия превращения Китая в супериндустриальное государство (1998-2050 гг.); Сб. статей. РАН ИДВ, Отв.ред. Титаренко М.Л., М., 2002, с.198. “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisodvasiyosat” ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, TDSHI, 2011y.
- 3.6. Annual Report to Congress: Military Power of the People's Republic of China 2014. (Office of the Secretary of Defense)

- 3.7. Dan Blumenthal. Providing Arms: China and the Middle East // The Middle East Quarterly, №2, Spring 2010.
- 3.8. Dingwerth K., Pattberg Ph. Global Government as a Perspective of World politics // Global Government. 2011. №2.
- 3.9. Jenkins R. China and Latin America: economic relations in the twenty-first century. Bonn, Mexiko City, 2014.
- 3.10. Kane T.M. Chinese Grand Strategy and Maritime Power. London, 2002.
- 3.11. Lee Jae-hyung. China and the Asia-Pacific Region: Geostrategic Relations and a Naval Dimension. New York, 2003.
- 3.12. The Military Balance 2009. — London: The International Institute For Strategic Studies, 2013
- 3.13. Деловой ПАРТНЕР.UZ №18(994) 2-8мая 2013. Б. М. Турсунов; Э. Р. Махмудов. Вектор инвестиций и инноваций: итоги VI Международного Инвестиционно – финансового форума и Республиканской ярмарки инноваций. 5-стр.
- 3.14. КНР: проблемы обороны. Каменнов П. // Проблемы Дальнего Востока, 6-2013. С.62

Internet resurslar.

<http://www.fas.org/nuke/guide/china/agency/costind.htm>

<http://www.stats.gov.cn/>

<http://www.chinamil.com.cn/site1/xwpdxw/gjjsxw/2014-07/30/gjjsxw.htm>

<http://www.imf.org/external/index.htm>

<http://www.mod.gov.cn/>

<http://www.chinatoday.com/arm/>

<http://www.sinodefence.com/strategic/default.asp>

<http://www.navy.mil/>

<http://www.sipri.org/>

<http://www.usni.org/index.asp>

<http://www.navy.gov.au/spc/>

http://www.isatr.ru/rus/c_inform/china/cn_minerals_rus.shtml

<https://www.uschina.org/statistics/tradetable.html>

<http://www.inafran.ru/node/57>

http://www.chinadaily.com.cn/bizchina/2011-01/20/content_11888099.htm

<http://www.easttime.ru/analitic/3/8/575.html>

<http://www.mir-geo.ru/vosto-aziya/k/gosud/ucha-v-mezh-orga>

<http://www.csef.ru/studies/politics/projects/china/articles/2197>

http://polbu.ru/malyavin_daosphilo/

http://news.xinhuanet.com/2013-11/22/c_111185426.htm

http://russian.news.cn/china/2014-09/08/c_131116640.htm

http://news.xinhuanet.com/world/2014-09/08/c_12530625.htm

<http://www.chinaafricanews.com/>

http://www.integrum.ru/Images/articles_author/analitika/Territorial_claims_RU_june.pdf


http://www.stats.gov.cn/english/newsandcomingevents/t20120222_402786587.htm

http://www.weltpolitik.net/texte/asien/umbach_balance.pdf

<http://www.ieca.org/Resources/ArticleDustBowlChina>

ILOVALAR

XXOA tarkibiy tuzilishi



XXR harbiy xarajatlari o`shish dunamikasi (mlrd AQSH dollari)

Yillar	XXR harbiy xarajatlari 2000-2014 yillarda (mlrd AQSH dollari)
2000	23
2001	25
2002	27
2003	29
2004	29,5
2005	29,9
2006	32
2007	34,9
2008	60
2009	68
2010	74
2011	91
2012	101
2013	118
2014	132

Jadval muallif tomonidan China government/reuturs, manbasiga sosan tayyorlandi.

Eng yirik qurol sotuvchi davlatlar

Davlatlar	Dunyoning eng yirik 10 ta qurol eksportyor davlatlari
AQSH	31
Rossiya	27
XXR	5
Germaniya	5
Fransiya	5
Buyuk Britaniya	4
Ispaniya	3
Italiya	3
Ukraina	3

Jadval muallif tomonidan <http://www.bbc.co.uk/russian/business/2015/03/150316chinaarmstradesipri> manbasiga sosan tayyorlandi.

Xitoy va AQSH ning harbiy xarajatlarining o`shish dinamikasi istiqbollari solishtirma jadvali

Yillar	XXR (mlrd \$)	AQSH (mlrd \$)
2010	90	623
2012	105	624
2014	150	618
2016	295	620
2018	230	625
2020	298	627,8
2022	311	647
2024	370	659,9
2026	400	678
2028	420	697
2030	500	698
2032	600	700,1
2034	700	700,5
2036	728	700,8
2038	800	701
2040	891	715

Jadval www.ciaworldfactbook.com manbasiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.